O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TARIX INSTITUTI

ZOHIDJON VALIJON O‘G‘LI XOLDOROV

TURKISTON LEGIONI TARIXI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent, 2026

UO‘K: 94 (575.1):355

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of abstract of the doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Zohidjon Valijon o‘g‘li Xoldorov
Turkiston legioni tarixi.....3

Zohidjon Valijon ugli Kholdorov
History of Turkestan legion……..…….…….....25

Зохиджон Валижон угли Холдоров
История Туркестанского легиона...…….....47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ.....52

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TARIX INSTITUTI

ZOHIDJON VALIJON O‘G‘LI XOLDOROV

TURKISTON LEGIONI TARIXI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent, 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Tar.1597 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fati.uz) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qahramon Kenjayevich Rajabov** tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Baxtiyor Ergashevich Ergashev** tarix fanlari doktori, professor
	Muzrobjon G‘ulomovich Abdullayev tarix fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti huzuridagi ilmiy darajalarni beruvchi DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “16” yanvar soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko‘chasi, 5-uy, Tarix instituti. Katta majlislar zali. Tel.: (+99871) 233-54-70; faks: (+99871) 233-39-91, e-mail: info@fati.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (___raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent sh., Ziyolilar ko‘chasi, 13-uy). Tel.: (+99871) 262-74-58; faks: (+99871) 262-34-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “9” yanvar kuni tarqatildi.

(2026-yil 8-yanvardagi 1-raqamli reestr bayonnomasi)

Azamat Ziyo
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, tarix fanlari doktori, akademik

X.S. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari doktori

F.S. Boboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi globallashuv jarayonida sodir bo‘layotgan ko‘plab siyosiy jarayonlar insonning qadr-qimmati, ijtimoiy va siyosiy huquqlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu o‘z navbatida harbiy asirlarning insoniy va siyosiy huquqlarini himoya qilish masalasida yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu jihatdan, asir tushgan jangchilar taqdiri hamda ulardan tuzilgan legionlar tarixini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning bir qator yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalarida Ikkinchi jahon urushining sabab va oqibatlari, urush qatnashchilarining jabhadagi faoliyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, asir tushgan qizil qo‘shin askarlariga nisbatan sovet hukumatining munosabati hamda Germaniya tomonidan ularga nisbatan yuritilgan siyosat, xalqaro Gaaga va Jeneva konvensiyalarida keltirilgan harbiy asirlarga tegishli huquq va erkinliklarning ta’minlanishi, asirlarning harbiy harakatlardagi ishtiroki tizimli ravishda o‘rganilmoqda. Biroq Turkiston legionining harbiy tuzilishi, jabhadagi faoliyati, ijtimoiy ta’minoti, Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasining legionda tutgan o‘rni hamda uning nashrlari va urushdan keyin sovet davlatiga qaytib kelgan legionchilarning taqdiri, ularga nisbatan sovet hukumatining munosabati hamda xorijda qolgan legionchilarning hayoti kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda tarix fanini rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixini milliy manfaatlarga muvofiq ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etishni zaruriyatga aylantirmoqda. Xususan, Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining g‘alabaga qo‘shgan hissasi hamda ularning asirlikdagi taqdiri masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zero, “Hujjatlarning dalolat berishicha, fashizmga qarshi qonli janglarda o‘sha paytda 6 million 800 ming nafarni tashkil etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok etgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo‘lgan, 158 ming nafari bedarak yo‘qolgan, 50 mingdan ortig‘i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo‘lgan, 60 mingdan ziyodi nogiron bo‘lib qaytgan”[1]. Shu boisdan o‘zbek xalqining jabhaga safarbar etilishi, Germaniya qo‘shiniga asir tushishi, asirlikda og‘ir ahvolda qolganligi hamda ulardan Turkiston legionining tuzilishi, shuningdek, sovet hokimiyatining harbiy asirlar va Turkiston legioniga nisbatan yuritgan siyosatini o‘rganish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2025-yil 19-fevraldagi “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda

[1] Ўзбекистон халқига байрам табриги / Халқ сўзи. 2025 йил 10 май.

belgilangan vazifalarni amalga oshirishga, Ikkinchi jahon urushi davrida faoliyat yuritgan Turkiston legioni bilan bog‘liq muammolarni yoritishda dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turkiston legioni tarixi bilan bog‘liq tadqiqotlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Sovet davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlar.
2. Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar.
3. Xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlari.

Sovet davrida nashr qilingan adabiyotlarda[2] Turkiston legioni faoliyatiga baho berishda o‘sha davr nuqtai nazari va kommunistik mafkura asosida yondashildi. Xususan, L.Bezimenskiy va M.Semiryaga tomonidan yozilgan kitoblarda sovet asirlaridan tuzilgan legionlar vatan xoinlaridan iborat harbiy birlik sifatida ko‘rsatiladi. T.Amirov esa Vali Qayumxon yetakchiligidagi Turkiston legioni Germaniya manfaati yo‘lida SSSRga qarshi kurashganligini yoritgan. Faylasuf Q.Xonazarov Vali Qayumxon va Boymirza Hayit faoliyatiga to‘xtalib, ular tomonidan yozilgan kitoblarda O‘rta Osiyo sovet respublikalarining taraqqiyotiga zid ma’lumotlar keltirilganligini ta’kidlab o‘tadi. X.Ibrohimbeylining asarida esa sovet asirlaridan iborat legionlarning Kavkaz hududi uchun Germaniya qo‘shini safida qilgan jangi yoritiladi.

Umuman olganda bu davrda yaratilgan adabiyotlarda Germaniyaga asir tushgan qizil qo‘shin askarlari vatan xoini sifatida ko‘rsatilgan holda, sovet hukumatining o‘z askarlariga nisbatan yuritgan adolatsiz siyosati yoritilmagan. Shuningdek, Turkiston legioni a’zolarining Germaniya bilan hamkorlik yo‘lida amalga oshirgan kurashi vatanga xoinlik sifatida baholanadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixidagi ko‘plab mavzular qatori Turkiston legioni ham o‘zbek olimlarining tadqiqotlarida[3] o‘z aksini topadi. Xususan,

---

[2] Хоназаров Қ. Ўрта Осиё республикалари тарихини сохталаштирувчиларга зарба // Ўзбекистон коммунисти. – 1963. – № 8. – Б. 91 – 96; Гемма В. Участие советских людей в европейском антифашистском движении сопротивления (1941-1945 гг.). – Ленинград, 1965. – 112 с.; Амиров Т. Крах легиона. – Алма-Ата: Издательство Казахстан, 1970. – 92 с.; Семиряга М. Советские люди в европейском сопротивлении. – Москва: Наука, 1970. – 351 с.; Безыменский Л. Особая папка “Барбаросса”. – Москва: Новости, 1972. – 342 с.; Джураев Т. Узбекистанцы – участники партизанской войны. – Тошкент: Узбекистан, 1975. – 137 с.; Ибрагимбейли Х. Крах «Эдельвейса» и Ближний Восток. – Москва: Наука, 1977. – 319 с.; Безыменский Л. Разгаданные загадки Третьего рейха. Книга не только о прошлом, 1941 – 1945. Том 2. – Москва: Издательство Агенства печати Новости, 1980. – 281 с.

[3] Каримов Ш. Туркистон легиони // Турон тарихи. – 2003. – № 1. – Б. 29 – 30; Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. (Учинчи китоб). – Андижон: Andijon nashriyot-matbaa, 2004. – 650 б.; Каримов Н. Туркистон легиони қачон ва қандай ташкил этилган? / Нур. 2004 йил 16 – 22 декабр; O‘sha muallif. Уруш ва зулм қурбонлари / Қадрият. 2005 йил 27 январ, 10 феврал; Шамсутдинов Р., Хошимов С. Яна туркистонлик ҳарбий асирлар хусусида / Ватанимиз ўтмишидан. – Андижон: Andijon nashriyot-matbaa, 2006. – Б. 141 – 155; Шамсутдинов Р., Расулов Б. Катағон қилинган мулкдорлар фожеаси / Тарихнинг хасратли саҳифалари. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 146 – 160; Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Тошкент, 2006. – 256 б.; Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – 496 b.; Shukurzoda M. Birinchi o‘zbek millioneri (Amerikadagi turkistonliklar jamiyati asoschilaridan biri Isoqjon

R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, N.Karimov, M.Isoqovalarning asarlarida Ikkinchi jahon urushida sovet askarlarining asirlikka tushish sabablari va sovet hukumatining ularga nisbatan munosabati ko‘rsatiladi. Q.Rajabovning tadqiqotlarida Turkiston legioni faoliyati yangicha yondashuv hamda fikrlar asosida ochib beriladi. Jumladan, olim legion turkistonliklarning hayotini saqlab qolishda muhim o‘rin tutganligini va uning faoliyatida Vali Qayumxon hamda Boymirza Hayit katta ishlarni amalga oshirganligini ta’kidlab, Turkiston legionini “Turkiston milliy o‘rdusi” nomi bilan ataydi[4]. Sh.Turdiyev, A.Yo‘ldoshev, M.Darmonovalar tomonidan yozilgan kitob va maqolalarda esa legion rahbari Vali Qayumxonning 1922-yilda Germaniyaga o‘qishga yuborilishi hamda uning keyingi taqdiri, “Millij Türkistan” jurnaliga doir ma’lumotlar o‘rin olgan. Shuningdek, O‘zbekiston FA Tarix instituti tomonidan tayyorlangan fundamental tadqiqotlarda[5] ham legionning ayrim jihatlari o‘z aksini topgan.

Jurnalist A.Ismoil tomonidan yozilgan “Turkiston legioni: tarixning o‘qilmagan varaqlari” nomli kitob[6] Turkiston legioni haqida yozilgan o‘zbek tilidagi ilk kitob hisoblanadi. Kitobda legionda xizmat qilgan Vali Qayumxon, Boymirza Hayit, Ro‘zi Nazar, Sattorali Bobozoda, Husayn Ikromxon kabi shaxslar bilan olib borilgan suhbatlar o‘rin olgan.

Turkiston legionining tarixi o‘tgan davr mobaynida ko‘plab xorijlik tadqiqotchilar tomonidan ham o‘rganildi. Jumladan, Turkiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Rossiya, Qirg‘iz Respublikasi, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi davlatlarda yaratilgan ilmiy adabiyotlar, tadqiqotlar hamda maqolalarni bunga misol keltirish mumkin.

Narziqulning hayot quvonchlari va tashvishlari) / Vatandosh. 2011-yil 11-iyun; O‘sha muallif. Биринчи ўзбек миллионери (Америкадаги туркистонликлар жамияти асосчиларидан бири Исоқжон Нарзиқулнинг ҳаёт қувончлари ва ташвишлари) / Vatandosh. 2011-yil 11-iyul; Шомуродов И. Туркистон легиони // Турон тарихи. – 2012. – № 6. – Б. 29 – 30; O‘sha muallif. Туркистон легиони // Турон тарихи. – 2013. – № 1. – Б. 27 – 28; Shukurzoda M. Эргаш Шермат Булоқбоши (1910-1995). ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/14.10.2013.; Ҳайитов Ш. Иккинчи жаҳон уруши: асирларнинг тақдири ва фожиали ҳаёт лавҳалари. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2015. – 39 б.; O‘sha muallif. Историческая судьба туркестанских военнопленных второй мировой войны // «Метаморфозы истории» Научный альманах. – № 6. – 2015. – С. 48 – 70; Каримов Н. Туркистон легиони қачон ва қандай ташкил этилган? // Водийнома. – 2019. – № 4. – Б. 57 – 66; Исоқова М. Иккинчи жаҳон урушини тадқиқ этишда ҳарбий асирлар масаласи // O‘zbekiston tarixi. – 2021. – № 2. – Б. 10 – 17; Шамсутдинов Р., Маҳкамов А., Болтабоев Ш. Боймирза Ҳайит ва унинг Туркистон тўғрисидаги мероси ҳақида // Водийнома. – 2023. – № 2. – Б. 5 – 55; Йўлдошев А. Чет элларда ўқиган туркистонлик ёшлар (19-юзйиллик сўнги – 20-юзйиллик биринчи чораги). – Тошкент: Фан, 2024. – 272 б.; Darmonova M. “Milliy Turkiston”: jadidchilik va qatag‘on. – Toshkent: Nurafshon business, 2024. – 196 b.

[4] Ражабов Қ., Давлатова М. Туркистон легиони: уйдирма ва ҳақиқат // Турон тарихи. – 2010. – № 1 – 3. – Б. 92 – 93; Ражабов Қ. Вали Қаюмхон // Турон тарихи. – 2014. – № 2–3. – Б. 15 – 16; O‘sha muallif. Мустафа Чокай рассказывает в XXI веке (Пролистывая 12-томный сборник полных произведений великого политического и государственного деятеля) // Туркестанский сборник. – 2016. – № 5. – С. 47 – 80; O‘sha muallif. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Иккинчи жилд (1939-2000). – Тошкент: Фан, 2024. – 720 б.; O‘sha muallif. Боймирза Ҳайит ким эди? // Ватан. – 2024. – № 3. – Б. 94 – 97; Rajabov Q., Amonova F., Qandov B. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Ochun, 2024. – 512 b.

[5] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. / Таҳрир ҳайъати: А.Азизхўжаев (раис) ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.; Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 й.). Иккита китоб. Иккинчи китоб. 1939 – 1991 йиллар / масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев ва бошқ. –Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – 576 б.

[6] Исмоил А. Туркистон легиони: тарихнинг ўқилмаган варақлари. – Б.: Vagant-Profit, 2007. – 92 б.

Urushdan so‘ng, xorijda qolgan legionchi Boymirza Hayit Turkiston legioni faoliyatiga doir bir qator kitoblar[7] yaratib, unda legion a’zolarining soni, legionning Turkiston ozodligi uchun sovet davlatiga qarshi kurash olib borganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni berib o‘tadi.

Turkiyalik tadqiqotchilarning asarlarida[8] sovet askarlarining Germaniya tomonidan asir olinishi, jamloqdagi sharq xalqlaridan tuzilgan harbiy birliklarning faoliyati tadqiq etiladi. Xususan, Ch.Ko‘char hamda A.Andijon xorijdagi legionning rahbar va a’zolari bilan uchrashib, ularning shaxsiy arxivlaridan foydalangan holda o‘z asarlarini yozadi. H.Sakal, J.Kumru, L.Chelik fashistlar Germaniyasining Turkistonga nisbatan qo‘llagan siyosati va Turkiston legioni faoliyatini Germaniya arxiv manbalari asosida tadqiq etadi. S.Barit esa Turkiston legioni asoschisi Vali Qayumxonning Germaniyadagi hayoti va faoliyatini o‘rganadi.

Qozog‘istonlik tarixchilarning tadqiqotlarida[9] turkistonlik harbiy asirlarning hayotini saqlab qolishda Mustafo Cho‘qay tashabbusi bilan amalga oshirilgan ishlar va uning Germaniya hukumati bilan munosabati yoritiladi. Ular Fransiya arxivida mavjud bo‘lgan Mustafo Cho‘qayning legionga aloqador hujjatlarini o‘z kitoblarida keltirib o‘tadi. Tojikiston[10] va Qirg‘iz Respublikasi[11] tarixchi olimlari tomonidan ham Turkiston legioni tarixiga doir birmuncha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, K.Abdullayev Ikkinchi jahon urushida Germaniyaga asir tushgani sababli minglab turkistonliklar muhojir sifatida xorijda qolishga majbur bo‘lganligini kitobida yoritadi.

---

[7] Hayit B. Sowjetrussische Orientpolitik am Beispiel Turkestans. – Köln-Berlin: Kiepnheuer & Witsch, 1962. – 289 s.; O‘sha muallif. Türklüğün ve islâmın bazı meseleleri. – İstanbul: Türk dünyası araştırmaları vakfı, 1987. – 264 s.; O‘sha muallif. Basmatschi. National kampf Turkistans in den Jahren 1917 bis 1934. – Köln, 1992. – 464 s.; O‘sha muallif. Türkistan devletlerinin milli mücadeleleri tarihi. İkinci baskı. – Ankara: Türk tarih kurumu basımevi, 1995. – 447 s.; O‘sha muallif. “Basmacılar”. Türkistan Milli Mücadele Tarihi. (1917 – 1934). – Ankara: Türkiye Diyanet vakfı yayınları, 1997. – 367 s.; O‘sha muallif. Sovyetlerde türklüğün ve İslam’ın bazı meseleleri. – İstanbül: Türk dünyasi arashtirmalari vakfi, 2000. – 336 s.; O‘sha muallif. Milli Türkistan Hürriyet Davasi: Milli Türkestan mecmuasında bildirilgan fikrler (Türkistan türkçesiyle metinlar). – Ankara: Atatürk kültür merkezi bashkanliği, 2004. – 641 s.

[8] Kara A. Türkistan ateşi: Mustafa Çokay’ın hayatı ve Mücadelesi. – İstanbul: Da Yayınlari, 2002. – 383 s.; Andican A. Turkestan struggle abroad. From Jadidism to Independence. – Haarlem: SOTA Publications, 2003. – 776 p.; Barit S. Türkistanlı Veli Kayum-han (1904-1993) hayatı ve fikirleri. – İstanbul, 2008. – 193 s.; H.Sakal. Germany and Turkestanes during the course of the World war II (1941 – 1945). – Ankara: The department of international relations Bilkent university, 2010. – 207 p.; Çelik L. II Dünya savaşinda Almanya saflarinda savaşan “Türkistan lejyon ordusu” (doktora tezi). – Konya, 2015. – 343 s.; Кара А. Истина Туркестанского легиона – между свастикой и красной звездой. – Астана: Общественное мнение, 2015. – 98 с.; Uzunel N. “Milli Türkistan” Türkistanlı Muhajerlarin Avrupa’daki Dergisi 1942 – 1975. – İstanbül: Ayaz Tahir Türkistan İdil-Ural Vakfı, 2016. – 317 s.; Koçar Ç. Dr. Baymirza Hayit’in Milli Türkistan Birlik Komitesi'nin teşkilat ve haberleşme bölüm başkani olarak ortadoğu ülkelerindeki faaliyetleri // Türk Dünyası Araştırmaları. – 2018. – № 118. – S. 123 – 146; Koçar Y. Türkistanlı Veli Kayyum Han’ın Kızı Bibi - Sabira Hanım’la Söyleşi: “Türkistanlilarin acikli hikâyelerini anlatinca gözlerim doluyor” // Düşunce ve Tarih. – 2020. – S. 45 – 46; Kumru C. Türkistan lejyonu: İkkinci dünya savaşı’nda alman saflarında savaşan türkler. – İstanbul: Kronik, 2024. – 431 s.

[9] Садыкова Б. История Туркестанского легиона в документах. – Алматы: Кайнар, 2002. – 247 стр.; Садыкова Б. Мустафа Чокай. – Алматы: Алаш, 2004. – 240 с.; Садыкова Б. Мустафа Чокай в эмиграции. – Алматы: Мектеп, 2009. – 248 с.; Эсмағамбетов К. Түркістандық әскери тұтқындар (Туркестанские военнопленные). – Алматы: Арыс, 2019. – 296 с.; Мендикулова Г. Казахи в европейском движении сопротивления: новые документы из зарубежных архивов // Исторический курьер. – 2021. – № 3. – С. 76 – 94.

[10] Абдуллаев К. От Синьцзяня до Хорасана. Из истории среднеазиатской эмиграции XX века. – Душанбе: Ирфон, 2009. – 571 с.

[11] Кызаева Д., Доценко Т., Бегалиев С. Архивные документы свидетельствуют: Депортированные народы в Кыргызстане. – Бишкек, 1995. – 340 с.

Bir qator rossiyalik tarixchilar tomonidan ham sovet harbiy asirlari va ulardan tuzilgan harbiy birliklar faoliyati tadqiq etilgan kitob hamda dissertatsiyalar[12] yaratilgan. Ularning tadqiqotlarida qizil qo‘shin askarlarining Germaniyaga asir tushishi, ulardan SSSRga qarshi harbiy birliklar tuzilishi va sovet hukumatining tutqunlikdagi askarlariga nisbatan yuritgan siyosati tadqiq etiladi.

Ingliz olimlari[13] o‘z kitoblarida sovet askarlarining Germaniyaga asir tushish sabablarini yoritib, buning sababi sifatida SSSRda 1937 – 1938-yillarda amalga oshirilgan qatag‘on siyosati ko‘rsatiladi. Shuningdek, harbiy asirlar masalasi va ulardan legionlarning tashkil etilishi hamda Germaniya qo‘shinidagi harbiy unvonlar haqida ham ma’lumot beriladi. Turkiston legioni bo‘yicha Germaniyada ham bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, ularning tadqiqotlarida[14] Turkiston legioni tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltiriladi. G.Tessin va Y.Hoffman tomonidan yozilgan kitoblarda 1941–1945-yillar Germaniya qo‘shinida SSSRga qarshi jang qilgan Sharqiy legionlar, jumladan, Turkiston legionining faoliyatiga tegishli ma’lumotlar mavjud. P.Muhlen esa kitobida Germaniya va SSSRning Sharq xalqlariga nisbatan yuritgan siyosatini yoritadi. Xususan, Gitler va Stalin o‘rtasida sodir bo‘lgan urush sabab turkistonliklar, Qirim tatarlari, Qozon tatarlari, Kavkaz xalqlarining og‘ir hayotini ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib beradi.

---

[12] Взваровой Г. Туркестанские легионеры // Военно-исторический журнал. – 1995. – № 2. – С. 39 – 46; Напсо Н. Восточные легионы в Вермахте в годы Великой отечественной войны 1941 – 1945 гг.: Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Майкоп, 2000. – 28 стр.; Романко О. Мусульманские формирования в Вермахте и войсках сс (1941 – 1945). К вопросу о военно-политическом статусе иностранных добровольцев в германских вооруженных силах // Культура народов Причерноморья. – 2003. – № 38. – С. 82 – 87; O‘sha muallif. Мусульманские легионы во Второй мировой войне. – Москва: Транзиткнига, 2004. – 320 с.; Червякова А. Власовское движение и массовое сознание в годы Великой Отечественной войны: Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ростов-на-Дону, 2004. – 26 стр.; Гилязов И. Легион «Идель-Урал». Представители народов Поволжья и Приуралья под знаменами «третьего рейха». – Казан: Татарское книжное издательство, 2005. – 384 с.; Паникар М. Советские военнопленные в Норвегии в годы Второй мировой войны: Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Архангельск, 2008. – 25 стр.; Лебеденко Р. Участие Российской эмиграции и советских военнопленных во Французском движении сопротивления в годы Второй мировой войны (1939 – 1945 гг.): Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Паятигорск, 2011. – 30 стр.; Хисамутдинова Р. Великая отечественная война Советского союза (1941 – 1945 годы) Военно-исторические очерки. – Оренбург: Издательство ОГПУ, 2014. – 476 с.; Латышев А. Система проверки военнослужащих красной армии, вернувшихся из плена и окружения. 1941 – 1945 гг.: Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Москва, 2017. – 20 стр.

[13] Littlejohn D. Foreign Legions of the Third Reich: Norway, Denmark, France. Volume 1. – California: R.James Bender Publishing, 1979. – 208 p.; O‘sha muallif. Foreign Legions of the Third Reich: Belgium, Great Britain, Hollan, Italy and Spain. Volume 2. – California: R.James Bender Publishing, 1987. – 288 p.; O‘sha muallif. Foreign Legions of the Third Reich: Albania, Czechoslovakia, Greece, Hungary and Yugoslavia. Volume 3. – California: R.James Bender Publishing, 1987. – 384 p.; Dallin A. German rule in Russia. 1941 – 1945. A study of occupation policies. – New York: Macmillan Press, 1988. – 707 p.; Littlejohn D. Foreign Legions of the Third Reich: Poland, the Ukraine, Bulgaria, Rumania, Free India, Estonia, Latvia, Lithuania, Finland and Russia. Volume 4. – California: R.James Bender Publishing, 1994. – 384 p.; Lumsden R. Medals and Decorations of Hitler’s Germany. – Osceola: MBI Publishing Company, 2001. – 160 p.; Johnson I. A Mosque in Munich: Nazis, the CIA, and the rise of the Muslim brotherhood in the West. – New York: Houghton Mifflin Harcourt, 2010. – 318 p.; Russel J., Cohn R. Turkestan legion. – Bracknell: Demand Ltd, 2012. – 148 p.; Motadel D. Islam and Nazi Germany’s war. – Cambridge: Belknap press, Harvard University Press, 2014. – 512 p.; Edele M. Stalin’s Defectors: How Red Army Soldiers became Hitler’s Collaborators, 1941 – 1945. – Oxford: Oxford university press, 2017. – 224 p.

[14] Tessin G. Verbande und Truppen der Deutschen Wehrmacht und Waffen-SS im Zweiten Weltkrieg 1939-1945, Erster Band: Die Waffengattungen-Gesamtübersicht. – Osnabrück: Biblio Verlag, 1977. – 469 s.; Mühlen P. Gamalıhaç ile Kızılyıldız Arasında İkinci Dünya Harbi’nde Sovyet Doğu Halkları. – Ankara: Mavi, 1984. – 264 s.; Hoffmann J. Die Ostlegionen, 1941 – 1943: Turkotataren, Kaukasier und Wolgafinnen im deutschen Heer. – München: Rombach Druck und Verlagshaus, 1986. – 200 s.; Streit Ch. Keine Kameraden: Die Wehrmacht und die sowjetischen Kriegsgefangenen 1941 – 1945. – Bonn: JHW Dietz, 2013. – 448 s.

Ammo O‘zbekiston va xorij olimlarining tadqiqotlarida Turkiston legionining tarkibiy qismi, ijtimoiy ta’minoti, Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasining faoliyati, “Millij Türkistan” jurnali va legionning boshqa nashrlari, legion a’zolarining urushdan keyingi muhojirlik hayoti, ular tomonidan MTBQni qaytadan tashkil etilishi va Turkistonni ozod qilish yo‘lida kurashni davom ettirish masalalari juda kam yoritildi. Shu bilan birga turkistonlik asirlarni SSSRga qaytarish jarayoni va ularning keyingi taqdiri to‘g‘risida umuman ma’lumot berilmaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining “O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” nomli o‘n jildlik akademik loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Turkiston legionining harbiy qismlari, jabhadagi harakati, Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasi faoliyati va urushdan keyin legion a’zolarining taqdirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi va unga o‘zbek xalqining safarbar etilishini o‘rganish;

harbiy asirlar masalasi, asir olingan turkistonliklar hayotini ochib berish;

turkistonlik asirlarning fashist jamloqlaridan Turkiston legioniga olinishini tadqiq qilish;

Turkiston legionining harbiy tuzilishi, ramzlari va ta’minotini ko‘rsatish;

Turkiston legionining jabhadagi faoliyatini tahlil qilish;

Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasining tashkil qilinishini tadqiq qilish;

sovet davlatiga qarshi kurashda qo‘mitaning noshirlik ishlarini ochib berish;

SSSRga qaytgan legionchilarning taqdirini tadqiq qilish;

muhojirlikda qolgan legion a’zolarining hayoti va faoliyatini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Turkiston legionining tarixini tadqiq etish tanlandi.

Tadqiqotning predmetini Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining urushga safarbar qilinishi, harbiy asirlar masalasi, turkistonlik askarlarning asirlikdagi hayoti, Turkiston legioni, MTBQning tuzilishi, faoliyati va uning a’zolarining urushdan keyingi taqdiri tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy va statistik solishtirish, og‘zaki tarix usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Jamloqdagi turkistonliklardan Turkiston legionini tuzish g‘oyasi 1941-yil yozida Germaniya hukumati (*Bosib olingan sharqiy hududlar vazirligi ushbu ishga rahbarlik qiladi*) tomonidan ilgari surilib, sovet davlati ustidan tezroq g‘alabaga erishishni ko‘zlab tashkil etilgani, asirlikdagi turkistonliklar esa o‘z hayotini saqlab qolish hamda Turkistonni ozod qilish orqali o‘zi va oilasidan vatan xoini hamda vatan xoinining oilasi degan tamg‘ani (*1941-yil 16-avgustdagi 270-son qaror*) olib tashlashni maqsad qilib legionga a’zo bo‘lganligi dalillangan;

Asirlar ichidan Turkiston legioniga olingan ko‘ngillilarga yaxshi sharoit (*maxsus jihozlangan kazarmalar, yetarli oziq-ovqat, maosh*) yaratilgani va Belorussiya, Ukraina, Polsha, Chexoslovakiya, Gretsiya, Fransiya, Italiya yerlarida jang qilib alohida jasorat ko‘rsatganlarga Germaniya bo‘ylab sayohat qilish huquqi berilgani hamda Germaniyaning orden-medallari bilan taqdirlangani, legion tarkibidan qizil qo‘shin tarafiga o‘tmoqchi bo‘lgan legionchilar esa o‘limga hukm qilingani yoki jazo jamloqlariga yuborilgani dalillangan;

Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasi 1942-yilda Berlin shahrida tuzilib, Germaniya tomonidan moliyaviy jihatdan ta’minlanganligi, uning tarkibiga legionchilar orasidan ilmlilar (*Boymirza Hayit, Ergash Shermat, Abdulloh To‘lagan, Husayn Ikromxon, Mo‘minjon Teshaboy*) tanlab olingani va qo‘mita urushdan keyin ham 1948-tilda o‘z faoliyatini tiklab sovet davlatiga qarshi *(“Milli Turkistan” jurnalida kommunizmga qarshi maqolalar orqali*) kurashgani hamda turli davlatlarda (*Turkiya, Misr, Iordaniya, Pokiston*) yashovchi muhojir turkistonliklar tomonidan qo‘llab-quvvatlangani, 20-yuzyillikning 80-yillariga qadar faoliyat yuritganligi ilmiy jihatdan asoslangan;

Ikkinchi jahon urushidan keyin legionchilar uch bosqichda jazolangani, 1945 – 1947-yillarda tekshiruvda aybdor deb topilgan legionchilar 6, 10 yillik qamoq yoki o‘lim jazosi bilan jazolangani, 1947 – 1956-yillar oralig‘ida dastlab aybsiz sifatida uyiga ruxsat berilganlarning ayrimlari (*Germaniyada ularning legionda xizmat qilganini ko‘rsatuvchi yangi hujjatlar qo‘lga kiritiladi*) yana jazoga tortilib (*o‘lim jazosi o‘rnig*a *25 yillik qamoq va 5 yilga siyosiy huquqlardan mahrum etish*), arzon ishchi kuchi sifatida GULAG jamloqlarida ishlatilgani, 1956 – 1991-yillarda (*1956-yildan keyin jamloqdagi legionchilarning deyarli barchasi ozodlikka chiqarilgan*) ularning katta qismining harbiy guvohnomasiga asir tushgan degan belgi qo‘yish hamda urush qatnashchisi degan guvohnomani bermaslik orqali jamiyatdan ajratish maqsadi ko‘zlanganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Milliy arxivi, Davlat xavfsizlik xizmati arxivi, Ichki ishlari vazirligi arxivi, Polsha davlat arxivi hamda internetdagi Rossiya Federatsiyasi arxivi hujjatlari, shaxsiy arxiv, davriy matbuot va xotira kitoblarni tahlilga tortish orqali Ikkinchi jahon urushining kam o‘rganilgan masalalariga aniqlik kiritilib, Turkiston legionining tarixi ochib berilgan.

O‘zbekiston FA Tarix institutidagi “O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi manbalari (eng qadimgi davrlardan 1991-yilgacha) elektron “Aqlli kutubxona” platformasiga 10 ta davriy matbuot materiallari va manbalar (50 bet), urush davriga oid suratlar (12 ta) taqdim etilgan. Mazkur hujjatlar elektron platforma fondini yangi ma’lumotlar bilan boyitishda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilgani, katta hajmdagi arxiv hujjatlari, matbuot materiallari va adabiyotlardan foydalanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Ikkinchi jahon urushi yillarida turkistonliklarning jabhaga safarbar etilishi, Germaniya qo‘shiniga asirlikka tushishi, ulardan Turkiston legionining tuzilishi, MTBQ faoliyati va nashrlari, legionchilarning urushdan keyingi taqdiri borasida ilmiy tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” nomli o‘n jildlik akademik ilmiy asar yaratilishida, shuningdek, ta’lim jarayonida darslik va qo‘llanmalarni yangi ma’lumotlar bilan boyitib borishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turkiston legioni tarixini tadqiq etish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Ikkinchi jahon urushidan keyin legionchilar uch bosqichda jazolangani, 1945 – 1947-yillarda tekshiruvda aybdor deb topilgan legionchilar 6, 10 yillik qamoq yoki o‘lim jazosi bilan jazolangani, 1947 – 1956-yillar oralig‘ida dastlab aybsiz sifatida uyiga ruxsat berilganlarning ayrimlari (*Germaniyada ularning legionda xizmat qilganini ko‘rsatuvchi yangi hujjatlar qo‘lga kiritiladi*) yana jazoga tortilib (*o‘lim jazosi o‘rnig*a *25 yillik qamoq va 5 yilga siyosiy huquqlardan mahrum etish*), arzon ishchi kuchi sifatida GULAG jamloqlarida ishlatilgani, 1956 – 1991-yillarda (*1956-yildan keyin jamloqdagi legionchilarning deyarli barchasi ozodlikka chiqarilgan*) ularning katta qismining harbiy guvohnomasiga asir tushgan degan belgi qo‘yish hamda urush qatnashchisi degan guvohnomani bermaslik orqali jamiyatdan ajratish maqsadi ko‘zlanganligiga oid xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan ”Suronli yillar” ko‘rsatuvida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” teleradiokanali davlat unitar korxonasining 2025-yil 10-iyuldagi 01-33/516-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalari harbiy asirlarga nisbatan sovet hokimiyati tomonidan yuritilgan siyosatning mohiyatini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi;

Jamloqdagi turkistonliklardan Turkiston legionini tuzish g‘oyasi 1941-yil yozida Germaniya hukumati (*Bosib olingan sharqiy hududlar vazirligi ushbu ishga rahbarlik qiladi*) tomonidan ilgari surilib, sovet davlati ustidan tezroq g‘alabaga erishishni ko‘zlab tashkil etilgani, asirlikdagi turkistonliklar esa o‘z hayotini saqlab qolish hamda Turkistonni ozod qilish orqali o‘zi va oilasidan vatan xoini hamda vatan xoinining oilasi degan tamg‘ani (*1941-yil 16-avgustdagi 270-sonli qaror*) olib tashlashni maqsad qilib legionga a’zo bo‘lganligiga oid ma’lumotlardan O‘z FA Tarix institutida 2022–2024-yillarda “O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi manbalari (eng qadimgi davrlardan 1991-yilgacha) elektron “Aqlli kutubxon” platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘z FA Tarix instituti 2025-yil 2-sentyabrdagi 3/1255-2108-son ma’lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar elektron platformani ilmiy ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi;

Turkiston legionining bosh siyosiy organi hisoblangan Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasi tomonidan legion askarlarida vatanparvarlik g‘oyasini uyg‘otish maqsadida jurnal, gazeta va kitoblar nashr etilganligi, urushdan keyin ham qo‘mita o‘z faoliyatini tiklab, to 20-yuzyillikning 80-yillariga qadar sovet davlatiga qarshi siyosiy tusda kurash olib borganligiga oid ma’lumotlardan O‘z FA Tarix institutida

2022 – 2024-yillarda “O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi manbalari (eng qadimgi davrlardan 1991-yilgacha) elektron “Aqlli kutubxon” platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zFA Tarix instituti 2025-yil 2-sentyabrdagi 3/1255-2108-son ma’lumotnomasi). Aniqlangan arxiv hujjatlari Ikkinchi jahon urushining kam o'rganilgan qismini ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi;

Asirlar ichidan Turkiston legioniga olingan ko‘ngillilarga yaxshi sharoit yaratilgan va ular Belorussiya, Ukraina, Polsha, Chexoslovakiya, Gretsiya, Fransiya, Italiya yerlarida jang qilib, alohida jasorat ko‘rsatganlarga Germaniya bo‘ylab sayohat qilish huquqi berilgan hamda Germaniyaning orden-medallari bilan taqdirlangan bo‘lsa, legion safidan sovet qo‘shiniga o‘tmoqchi bo‘lganlar o‘limga hukm qilingani yoki jazo jamloqlariga yuborilganiga oid ma’lumotlardan O‘z FA Tarix institutida 2022 – 2024-yillarda “O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi manbalari (eng qadimgi davrlardan 1991-yilgacha) elektron “Aqlli kutubxon” platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zFA Tarix instituti 2025-yil 2-sentyabrdagi 3/1255-2108-son ma’lumotnomasi). Taqdim etilgan arxiv hujjatlari elektron platformani ilmiy ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, jumladan, shundan 4 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya bo‘yicha 12 ta maqola chop etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti aniqlangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilinib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ikkinchi jahon urushi hamda harbiy asirlar taqdiri**” deb nomlangan birinchi bobi urushning boshlanishi, unga o‘zbekistonliklarning safarbar etilishi, o‘zbeklar qatori barcha turkistonliklarning asirlikka tushish sabab va omillari hamda asirlikdagi hayoti masalalariga bag‘ishlanadi.

Urush davrida Turkiston mintaqasidagi eng ko‘p aholi O‘zbekiston SSR hissasiga to‘g‘ri kelgan. 1939-yil 17-yanvarda SSSRda amalga oshirilgan aholini

ro‘yxatga olish natijasiga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda 6 282 446 nafar aholi istiqomat qilgan[15]. Germaniyaning hujumi arafasida esa aholi soni 6 800 000 nafardan ortiq kishini tashkil etadi. 1941–1945-yillar davomida jabhada Germaniyaga qarshi olib borilgan janglarda 1 950 700 nafar o‘zbekistonlik jangchilar qatnashadi[16]. Bundan ko‘rinib turibdi-ki, O‘zbekiston SSRning salkam uchdan bir qism aholisi qizil qo‘shinda Germaniyaga qarshi jang qiladi.

Safarbarlik davrida jabhaga borishdan bosh tortganlar ham bo‘lgan. Jumladan, andijonlik Komiljon Sanobarov va Foziljon Mavlonov 1942-yilda urushga borishdan bosh tortadi. Natijada, ularga Harbiy tribunal tomonidan 1942-yil 17-aprelda O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 128-moddasi a-bandiga binoan harbiy safarbarlikdan bo‘yin tovlash aybi bilan 5 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Lekin ularga tayinlangan qamoq jazosining ijrosi urush yakunlangunga qadar kechiktirilib, 1942-yil mayda K.Sanobarov hamda F.Mavlonovlar Germaniya bilan jang ketayotgan hududga jo‘natiladi. Shu bilan birga dushmanga qarshi jangda qahramonlik ko‘rsatadigan bo‘lishsa, ularga qo‘yilgan ayblar bekor qilinishi va’da qilinadi[17].

1941-yil oxirlaridan boshlab GULAG[18] jamloqlaridagi quloqlarni ham urushga safarbar qilish boshlanadi. Bu vaqtda O‘zbekiston SSRdagi mehnat jamloqlarida 2738 nafar erkak saqlanayotgan edi[19]. Urushga borganlardan quloq sifatida surgun muddatining qolgan qismi olib tashlanishiga va’da beriladi[20]. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, 1942-yilning oxirlariga kelib O‘zbekiston SSRning Toshkent, Surxondaryo, Andijon viloyatlari va respublikaning boshqa hududlaridagi mehnat jamloqlarida jazo o‘tayotgan mingdan ortiq quloqlar jabhaga yuboriladi[21]. Quloqlarni jabhaning oldingi chizig‘iga yuborish orqali sovet davlati o‘zining “dushmanlari”dan qutulishni maqsad qilganligini ko‘rish mumkin.

Qizil qo‘shinda o‘zbeklar qatori barcha turkistonliklar “madaniyatsiz” xalq sifatida qaraldi. Ular jabhaning eng oldingi chizig‘iga yetarli darajada qurol bilan ta’minlanmasdan, ya’ni 1000 nafariga 50 – 60 ta miltiq bilan jangga kiritiladi[22]. Shu bilan birga qizil qo‘shinda askarlarni kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta’minlash ham yomon holatda bo‘lgan[23]. Bu omillar ularning Germaniya qo‘shiniga asir tushishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, SSSR Davlat mudofaa qo‘mitasi tomonidan 1941-yil 16-avgustda 270-son “Harbiy xizmatchilarning taslim bo‘lganligi va qurolini dushmanga topshirganligi uchun javobgarlikka

---

[15] Qzil Ozbekstan. 1939 jil 18 janvar; Шоқай М. Шығармаларынын толық жинағы. Он екі том. Том XI. – Алматы: Дайк-Пресс, 2014. – С. 45.

[16] Ўзбек халқининг Иккинчи жаҳон урушида ғалабага қўшган ҳиссаси (Архив ҳужжатлари тўплами). Масъул муҳаррир: Азамат Зиё. – Тошкент: Akademnashr, 2023. – Б. 2.

[17] O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivi (keyingi o‘rinlar O‘zR DXXA tarzida beriladi). P-44038-ish, 1-yig‘majild, 38 – 39; 47-varaqlar.

[18] *GULAG (o‘zbek tilida Axloq tuzatish mehnat jamloqlari boshqarmasi)* – 1930 – 1959-yillarda SSSRda mavjud bo‘lgan mehnat jamloqlarini boshqaruvchi idora.

[19] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi arxivi (keyingi o‘rinlar O‘zR IIVA tarzida beriladi). 32-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 11-yig‘majild, 134 – 135-varaqlar; Абдуллаев М. Ўрта Осиёдаги махсус посёлкалар тизими ва сургун қилинган қулоқлар тақдири (1930 – 1954 йиллар). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б. 265.

[20] O‘zR IIVA. 32-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 27-yig‘majild, 22 – 23-varaqlar.

[21] O‘zR IIVA. 67-ish, 1-yig‘majild, 300 varaq.

[22] Türkistanda askariy meçburijet (resim bilen) // Millij Türkistan. – 1942. – № 2. – S. 23 – 28.

[23] Зиёев Ҳ. Она шаҳрим Тошкент ва ҳаёт йўлимдан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 55 – 59.

tortish to‘g‘risida”gi[24] qaror imzolanadi. Qarorga binoan, jang vaqtida harbiy nishonlarini yirtib tashlagan va orqaga chekingan yoki dushmanga taslim bo‘lgan komandir hamda askarlar dezertir hisoblanadi.

Germaniya Oliy qo‘mondonligi tomonidan 1942-yil 20-iyulda sovet asirlari tanasiga uzoq vaqt davomida o‘chmaydigan maxsus tamg‘a tushirish to‘g‘risida qaror chiqariladi[25]. Bu siyosat Germaniya taslim bo‘lgunga qadar amalga oshiriladi. Jamloqdan qochib ketgan asirlarni qidirib topish va ularning shaxsini aniqlashda bu tamg‘a katta yordam beradi. Shu bilan birga qo‘mondonlik tomonidan jamloqqa olib kelingan sovet harbiy asirlarining shaxsiy varaqalari ham shakllantiriladi. Ushbu varaqalarda harbiy asirning ismi, familiyasi, sharifi, tug‘ilgan sanasi, joyi, ota-onasining ismi va familiyasi, millati, dini, fuqarolikdagi kasbi, qizil qo‘shindagi harbiy darajasi hamda asirga tushgan sanasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin olgan[26]. Shuningdek, bu varaqalarning deyarli barchasida asirlarning barmoq izlari, ba’zilarida esa rasmlar ham keltirilgan.

Tarixchi Boymirza Hayitning ma’lumotiga qaraganda, asirlikdagi turkistonliklar soni 1,7 mln nafar bo‘lgan[27]. Shulardan taxminan 500 000 nafari o‘zbekistonliklar bo‘lgan. Arxiv hujjatlarida keltirilgan 300 nafar asirlikdagi o‘zbekistonliklarning shaxsiy varaqasini tahlil etiladigan bo‘lsa, ularning katta qismi urushning ilk bosqichida asir tushganligi ma’lum bo‘ladi. Xususan, ulardan 188 nafari 1941-yilda, 40 nafari 1942-yilda, 4 nafari 1943-yilda, 2 nafari 1944-yilda nemislarga asir tushgan. Qolgan 66 nafar askarning asir tushgan vaqti keltirilmagan. Katta ehtimol bilan ularning yarmidan ko‘pi 1941-yilda asirlikka tushgan. Shuningdek, ro‘yxatdagilarning 260 nafari o‘zbek, 19 nafari rus, 15 nafari qozoq, 4 nafari ukrain, 2 nafari tojik, 1 nafari turkman bo‘lgan[28]. Bu O‘zbekiston SSRdan urushga yuborilganlarning 80 foizi o‘zbek bo‘lganligi va ularning 50 foizdan ortig‘i 1941-yildayoq nemislarga asir tushganligini ko‘rsatib beradi.

Asirlikka tushgan o‘zbeklardan biri Ahmad Tojiboyev (Toshkent viloyatida tug‘ilgan) 1941-yilda jabhaga safarbar etilib, qizil qo‘shinning 18-o‘qchi diviziyasida xizmat qiladi. U 1941-yil 16-avgustda Belorussiya SSRning Jlobin shahrida bo‘lgan jangda nemislarga asir tushadi[29]. U Jlobin shahridagi jamloqda 8 kun saqlanadi. Keyinchalik u Belorussiya SSRning boshqa bir shahri Bobruyskka yuboriladi. Bobruyskdagi jamloqda bir hafta davomida saqlanganidan keyin, Polshaning Ostrov shahridagi jamloqqa olib boriladi. 1941-yil sentyabr oyida ushbu jamloqdagi asirlarni turli guruhga ajratish ishlari boshlanadi. Jumladan, turkistonliklar kiyimiga “A” harfi, ruslarga “R” harfi, ukrainlarga “U” harfi, kavkazliklarga “K” harfi yozilib, alohida guruhga bo‘linadi[30]. Harbiy birliklar tuzish maqsadida asirlar bu kabi guruhlarga ajratiladi.

---

[24] Российский государственный военный архив (РГВА). ф. 4. оп. 12. д. 98. лл. 612 – 617. (Prlib.ru, murojaat qilingan sana: 29.02.2024).

[25] Главные документы Великой Отечественной войны, 1941 – 1945. – Москва: Комсомольская правда, 2015. – С. 184 – 185.

[26] O‘zR DXXA. P-25612-ish, 1-yig‘majild, 24-varaq; Archiwa Polskie. I-III-12710, Arkusz 1.

[27] Hayit B. Sovyetlerde türklüğün ve İslam’ın bazı meseleleri. – İstanbül: Türk dünyasi arashtirmalari vakfi, 2000. – S. 190.

[28] O‘zR DXXA. P-25612-ish, 1, 2, 3, 4, 5-yig‘majildlar.

[29] O‘zR DXXA. P-44094-ish, 1-yig‘majild. 11-varaq.

[30] Yuqoridagi manba. 11-varaq orqasi.

Dissertatsiyaning "**Turkiston legionining tashkil topishi, faoliyati**" nomli ikkinchi bobida jamloqdagi turkistonliklardan Turkiston legionining tashkil etilishi va unda Germaniyaning ko‘zlagan maqsadi, legionning harbiy tuzilishi, ramzlari, ta’minoti, jang maydonidagi faoliyati ochib berilgan.

Sovet harbiy asirlaridan legion tuzish bo‘yicha Germaniyaning yuqori idoralarida avvaldan reja bo‘lgan. Xususan, Bosib olingan sharqiy hududlar vaziri hisoblangan Alfred Rozenberg tomonidan ushbu reja ishlab chiqiladi[31]. Germaniya legionni tuzishda sovet davlati ustidan tezroq g‘alabaga erishish, qo‘shinda yo‘qotilgan inson resursini turkistonliklar orqali to‘ldirishni maqsad qiladi. Mustafo Cho‘qay va Vali Qayumxon esa Germaniyaning yordami bilan Turkistonni ruslardan ozod qilish hamda birlashtirishni ko‘zlaydilar. 1941-yil 27-dekabrda Mustafo Cho‘qayning vafotidan keyin Turkiston legionini tuzish ishlari Vali Qayumxon zimmasida qoladi[32]. 1942-yil 19-fevralda kapitan Erneke rahbarligida 7 ta batalyondan iborat Turkiston legioni rasmiy jihatdan tuziladi. SMERSHning[33] 1943-yildagi ma’lumotnomasida ham legion 1942-yilda Polshaning Legionova shahrida tuzilganligi to‘g‘risida ma’lumot beriladi[34]. Legionova shahri legionning asosiy markaziga aylanadi.

Turkiston legionining harbiy qismlari Germaniya qo‘shini (Vermaxt deb atalgan)da mavjud bo‘lgan tartib-qoidalar asosida shakllantiriladi. Legion Germaniya Quruqlik qo‘shinlari (Heer) tarkibiga kirib, otryad [gruppe], vzvod [zug], rota [kompanie], batalon [bataillon], polk [regiment], brigada [brigade], diviziya [division] kabi harbiy qo‘shilmalarga bo‘lingan[35].

Yangi tashkil qilingan batalonning nemis rahbarlariga turkistonliklardan o‘rinbosarlar tayinlangan. Ya’ni, batalonni boshqarish sohasidagi asosiy ishlar nemis harbiylari ixtiyorida bo‘lgan. Batalonlar 5 ta rotadan iborat bo‘lgan. Shundan uchtasi o‘qchi rotalar hisoblangan va har bir rotada 190 – 200 nafar askar xizmat qiladi. Har bir rota esa 3 ta vzvodga bo‘linadi va har bir vzvodda 60-70 nafar askar bo‘lgan. Har bir vzvod esa 2 ta otryaddan iborat bo‘lgan. Umumiy hisobda bitta batalon 800 – 1000 nafar askar hamda ofitserdan va yuqori lavozimlarda 40 nafargacha nemis harbiylaridan tarkib topadi. Rotalarning qurollanishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, har bir otryadda bittadan qo‘l pulemyoti va har bir vzvodda bittadan minomyot mavjud bo‘lgan[36].

Legionning har bir batalonida 3 ta 45 mmli tangga qarshi qurol, 15 ta yengil va og‘ir minomyot, 52 ta qo‘l pulemyoti, miltiq va avtomat mavjud bo‘lgan. Sovet xavfsizlik xizmatining Moskvaga yuborgan bir xabarnomasida Turkiston legionining batalonlaridan birida tangga qarshi 3 ta PTO quroli, 15 ta "Maksim" rusumli pulemyot, 25 ta atrofida "Degtyarev" rusumli avtomat, 82 mmli minomyot, 800 ta rus militig‘i, 150 ta Belgiya to‘pponchasi, rus va nemis

---

[31] Treatment of Soviet Prisoners of War, document No.1519-PS. Nazi conspiracy and aggression Volume IV (Office of United States Chief of Counsel for prosecution of Axis Criminality). – Washington: United States Government Printing Office, 1946. – P. 71.

[32] O‘zR DXXA. 23877-ish, 1-yig‘majild, 22-varaq.

[33] *SMERSH (o‘zbekchada "Josuslarga o‘lim")* – 1943 – 1946-yillarda faoliyat yuritgan maxfiy idora.

[34] O‘zR IIVA. 32-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 31-yig‘majild, 7-varaq orqasi.

[35] Handbook on German military forces: War department. – Washington: United States Government printing office, 1945. – P. 5 – 9.

[36] O‘zR DXXA. P-23627-ish, 1-yig‘majild, 50-varaq va uning orqasi.

granatalari mavjud bo‘lgan[37]. Har bir askarga bitta rus miltig‘i va 15 ta o‘q, shuningdek, protivogaz ham berilgan[38]. Bu qurollarning barchasi qizil qo‘shindan qo‘lga kiritilgan bo‘lib, ular maxsus qurollar zaxirasida saqlanadi. Jang vaqtida bir legion askari uchun kuniga 600 gramm non, 45 gramm kolbasa, 30 gramm sariyog‘, sho‘rva, 3 dona tamaki va 10 kunga 7 marka pul mablag‘i beriladi[39]. Ba’zida berilayotgan tamaki miqdori ikki kun uchun 5 tani tashkil etib, har 10 kunda ma’lum miqdorda shirinlik ham berilgan[40].

Legion askarlariga nemislarning harbiy kiyimidan bir oz farq qilgan kiyimlar berilgan. Har bir legionchi furajka, shinel, gimnastyorka, ko‘ylak, etik bilan ta’minlanadi[41]. Ba’zida legionchilar faqat nemis harbiy kiyimlari bilan emas, balki Germaniyaning ittifoqchisi bo‘lgan davlatlarga tegishli kiyimlar bilan ham ta’minlangan. Xususan, 1942-yil oktyabrda Ukraina SSRning Proskurova shahrida joylashgan asirlar jamlog‘idagi 250 nafar turkistonliklarga Italiya, Ruminiya, Vengriya qo‘shinining harbiy liboslari beriladi[42]. Legion o‘zining alohida ramzlariga ham ega bo‘lgan. Alfred Rozenbergning 1942-yil 8-mayda Adolf Gitlerga bergan hisobotida legionning bayrog‘i masalasiga ham to‘xtalib o‘tadi[43]. Unga ko‘ra, yarim oy tasviri tushirilgan bayroq legionning ramzi etib tanlanadi. Legionning madhiyasi sifatida Abdulhamid Cho‘lponning “Go‘zal Turkiston” she’riga bastalangan musiqa qabul qilinadi[44].

Turkiston legionining birinchi guruhi 1942-yilning 2-may sanasida RSFSRning Bryansk o‘rmonida jangga kiritiladi. 1942 – 1943-yillarda Germaniya qo‘shinining Kavkaz hududiga amalga oshirgan hujumida 6 ta Turkiston legionining bataloni qatnashadi[45]. Xususan, Maykop va Rostov shaharlari uchun bo‘lgan jangda 3-batalon Germaniya qo‘shinida jang qiladi[46]. Stalingrad shahri uchun bo‘lgan jangda legionning 3 ta bataloni ham qatnashadi. Shulardan biri 782-batalon bo‘lib, uning tarkibidagi 1100 nafar askardan 877 nafari jangda halok bo‘ladi[47]. 1942-yil avgust oyida 2-batalon RSFSRning Neftegorsk va Tuapse shaharlarida qizil qo‘shinga qarshi jangga kiradi[48]. Shu yilning dekabr oyida legionning 7-bataloni Kursk viloyatining Kastornoy shaharchasiga yuboriladi[49]. 1943-yil yanvariga qadar batalon bu yerda qizil qo‘shin bilan jang qiladi[50]. 1943-yil 25 – 26-yanvar kunlari Kastornoydagi jangda 31 nafar legionchi SSSRga asir tushadi[51]. Asir tushganlarning barchasi SMERSHning chig‘irig‘idan o‘tkaziladi.

---

[37] Органы государственной безопасности СССР в великой отечественной войне: сборник документов. – Москва: Издательство «Русь», 2008. – С. 328.
[38] O‘zR DXXA. 23848-ish, 1-yig‘majild, 168-varaq; O‘zR DXXA. 8660-ish, 1-yig‘majild, 11-varaq.
[39] O‘zR DXXA. P-30085-ish, 2-yig‘majild, 26-varaq orqasi va 27-varaq.
[40] O‘zR DXXA. 3632-ish, 1-yig‘majild, 61-varaq orqasi.
[41] O‘zR DXXA. 23848-ish, 1-yig‘majild, 168-varaq.
[42] O‘zR DXXA. 8412-ish, 1-yig‘majild, 38-varaq.
[43] Nazi conspiracy and aggression. Volume IV. Office of United States Chief of Counsel For Prosecution of Axis Criminality. – Washington: United States Government Printing Office, 1946. – P. 70 – 71.
[44] İkram Han H. Bir Türkistanlının İkinci Dünya Savaşı Hatıraları. – İstanbul: Bedir, 1999. – S. 131 – 133.
[45] Садыкова Б. История Туркестанского легиона в документах. – Алматы: Кайнар, 2002. – С. 83.
[46] O‘zR DXXA. 44333-ish, 1-yig‘majild, 38-varaq.
[47] O‘zR DXXA. 23848-ish, 1-yig‘majild, 100-varaq.
[48] O‘zR DXXA. 24044-ish, 1-yig‘majild, 51-varaq va uning orqasi.
[49] O‘zR DXXA. 30085-ish, 1-yig‘majild, 25-varaq.
[50] O‘zR DXXA. 21418-ish, 3-yig‘majild, 282-varaq.
[51] O‘zR DXXA. 21418-ish, 2-yig‘majild, 76-varaq orqasi.

Legionda alohida o‘rin tutgan 789-batalon 1943-yil fevralda partizanlarga qarshi kurash uchun Gollandiya hududiga yuboriladi. Batalon askarlari bu yerda may oyiga qadar bo‘lib, may – avgust oylarida Belorussiya SSRning Minsk, Polshaning Mazovetsk shaharlarida partizanlarga qarshi jang qiladi. Partizanlar bilan bo‘lgan janglar davomida batalonning 1-rotasi nemis askarlari bilan birgalikda Polshaning Siglovo qishlog‘ida 30 nafar odamni qamoqqa oladi. Batalon bu hududlarda partizanlarga qarshi kurashdan tashqari, Germaniyaning harbiy omborlari, temir yo‘llarini ham qo‘riqlaydi. 1944-yil aprel oyiga kelib 789-batalon Gretsiyaning Salonika shahriga yuboriladi[52]. Batalon askarlari 9 oy davomida Gretsiyada nemislarning harbiy aerodromini qo‘riqlab, Salonikaning Anna Gramatikul, Vasilki kabi qishloqlarida grek partizanlariga qarshi jang qiladi. Jang davomida legion askarlari orasidan partizanlar tomoniga o‘tib ketish holati yuz beradi. Jumladan, 1944-yil avgustda 11 nafar, sentyabrda 20 nafardan ortiq, 5-oktyabrda 19 nafar legionchi partizanlar guruhiga qo‘shilib, Germaniyaning o‘ziga qarshi kurash olib boradi[53].

Dissertatsiyaning “**Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasining Turkiston legionida tutgan o‘rni**” deb nomlangan uchinchi bobida legionning bosh siyosiy organi hisoblangan MTBQning faoliyati va qo‘mita tomonidan nashr qilingan ishlar tahlil etilgan.

MTBQ 1942-yil 15-avgustda Berlin shahrida Bosib olingan sharqiy hududlar vazirligi qoshida tuziladi[54] va qo‘mita rahbari etib Vali Qayumxon tayinlanadi[55]. Qo‘mita sog‘liqni saqlash, ilmiy, diniy, siyosiy targ‘ibot kabi bo‘limlardan iborat bo‘lgan[56]. Qo‘mitadagi barcha bo‘limlar siyosiy jihatdan Vali Qayumxonga bo‘ysunib, legion askarlariga ta’lim berish, diniy amallarni bajarish va boshqa masalalarda asosiy o‘rin tutadi.

Qo‘mita tomonidan legion askarlari bilan maxsus uchrashuvlar ham tashkil etiladi. Xususan, 1942-yilda Romni shahrida MTBQning yetakchi xodimlari, Turkiston legioni askarlari va nemis harbiy amaldorlari ishtirokida katta yig‘in bo‘lib o‘tadi. Shuningdek, 1943-yil aprelda Germaniya hududidagi maxsus maktabda katta tadbir tashkil etiladi. Maxsus maktabda mashg‘ulotlarni yakunlagan 38 nafar askar va 27 nafar mulla legionda yuqori mansabga tayinlanadi[57]. Tadbirda Vali Qayumxon va legion leytenanti Hakim o‘g‘li ham ishtirok etadi.

Qo‘mita targ‘ibotchilari legion askarlari va harbiy asirlar orasida tashviqot ishlarini olib borgan. Xususan, 1943-yil 18-oktyabrda qo‘mita targ‘ibotchilari Fayzulla Shukur va kichik ofitser Ro‘ziyev Xerson viloyatining Golopristan tumanidagi Klassenfeld davlat va tajriba xo‘jaligi (Staats und Versuchsgut Klassenfelde)da ishlayotgan o‘zbek, turkmanlar orasida tashviqot ishlarini yuritish

[52] O‘zR DXXA. 24046-ish, 1-yig‘majild, 9; 29; 36-varaqlar.
[53] Yuqoridagi manba. 209; 213-varaqlar.
[54]Государственный архив Российской Федерации (ГАРФ). ф. 500, оп. 5, д. 23, лл. 140 – 141. (docc.historyrussia.org. murojaat qilingan sana: 28.03.2024).
[55] O‘zR DXXA. 23877-jamg‘arma, 604-ish, 1-yig‘majild, 47-varaq; Milli Türkistan. – 1952. – № 79 (A). – S. 11.
[56] Романько О. Мусульманские легионы во Второй мировой войне.– Москва: Транзиткнига, 2004. – С. 67 – 68; O‘zR DXXA. 23877-ish, 1-yig‘majild, 21-varaq orqasi.
[57] Ikram H. God with us (III) // Milli Türkistan. – 1953. – № 87 (B). – P. 11.

uchun yuboriladi[58]. Ular 20 – 24-oktyabr kunlari o‘zbek va turkmanlar bilan uchrashadi. MTBQ tomonidan xalqaro darajada qurultoy ham o‘tkazilgan. Xususan, Avstriyaning Vena shahrida 1944-yil 8-10-iyun kunlari qo‘mitaning birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tadi. Qurultoyda Turkiston istiqloli yo‘lida kurashayotgan legion askarlari va muhojirlikda hayot kechirayotgan turkistonliklar orasidan saylangan 573 nafar vakil qatnashadi[59]. Qurultoy yakunida Vali Qayumxonning hisoboti asosida 30 moddalik rezolyutsiya ham ishlab chiqiladi[60].

Turkiston legioni faoliyatida muhim o‘rin tutgan “Millij Türkistan” jurnali Berlin shahrida 1942–1945-yillarda nashr etiladi. Urush davrida jurnalning 62 ta soni (1942-1975-yillar oralig‘ida umumiy 134 ta son) nashr qilingan[61]. Bu vaqtda e’lon qilingan 200 dan ortiq maqolalarning katta qismini Turkiston tarixi, ruslarning mustamlakachilik siyosati va Turkiston legioni faoliyatiga doir masalalar tashkil etadi[62]. Xususan, “Millij Türkistan”da legion va qo‘mitaning faoliyati, legion askarlarining xotiralari, jurnalning o‘zi haqida 60 dan ortiq, Rossiya imperiyasi va sovet davlatining Turkiston o‘lkasida amalga oshirgan mustamlakachilik siyosatiga doir 50 dan ortiq, legionchilarning she’rlari va milliy adabiyot to‘g‘risida 18 ta maqolalar mavjud[63]. Jurnaldagi qolgan maqolalar Mustafo Cho‘qay hayoti, Itil-Tatar, Ozarbayjon legionining faoliyati kabi masalalarni o‘z ichiga olgan. Maqolalar Vali Qayumxon, Boymirza Hayit, Abdulloh Hushnud, Ahmadjon Umarxono‘g‘li, Ergash Shermat kabi legion a’zolari tomonidan yozilgan.

“Millij edebijat” jurnalini ilk marta 1943-yilda Berlin shahrida nashr etish boshlanib, 1945-yil aprelga qadar 28 ta soni nashr etiladi. Jurnalning bosh muharriri Vali Qayumxon, muharrir esa Qo‘bizchi Qo‘rqit bo‘lgan[64]. Jurnalda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik adabiyotining buyuk yozuvchi hamda shoirlarining asarlari chop etilgan. Ushbu jurnalda legion askarlari tomonidan yozilgan she’r va hikoyalar ham muntazam ravishda nashr etib turilgan. Jurnalning ilk sonida Vali Qayumxonning “Milli edebijat” nomli maqolasi e’lon qilinadi[65]. Vali Qayumxon va Abul Zavqiy muharrirligida lotin alifbosi asosida Turkiston turkchasida 1942 – 1945-yillarda “Yeni Türkistan” gazetasi ham nashr etiladi[66]. Gazetaning nashr ishlarida turkistonlik ikkitadan noshir faoliyat yuritadi. Ushbu gazetaning vazifasi legion askarlariga dunyoda bo‘layotgan voqealardan xabar berib turishdan iborat bo‘lgan.

Jurnal va gazetalardan tashqari qo‘mita tomonidan badiiy va ilmiy kitoblar ham nashr qilinadi. Xususan, “Milliy istiqlol” nomli kitob[67], Qo‘bizchi Qo‘rqitning

---

[58] O‘zR DXXA. 23877-ish, 1-yig‘majild, 21-varaq.
[59] Milli Qonğıranın 8 yıllığı // Milli Türkistan. – 1952. – № 79 (A). – S. 11.
[60] Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. – Тошкент: Фан, 2024. – Б. 70.
[61] Hayit B. Milli Türkistan Hürriyet Davasi: Milli Türkestan mecmuasında bildirilgan fikrler (Türkistan tükçesiyle metinlar). – Ankara: Atatürk kültür merkezi bashkanliği, 2004. – S. 5.
[62] Darmonova M. “Milliy Turkiston”: jadidchilik va qatag‘on. – Toshkent: Nurafshon business, 2024. – 196 b.; O‘zR DXXA. 11127-ish, 1-yig‘majild, 36-varaq.
[63] Koçar Ç. Milli Türkistan mecmuası bibliyografyasi (1942-1975). – Ankara: Bengü, 2024. – S. 179 – 233.
[64] Koçar Ç. XX. Yüzyıl Türkistan tarihinin önemli olayları ve şahsiyetleri. – Ankara: Bengü, 2024. – S. 92.
[65] Kajum-Han V. Millij edebijat // Millij edebijat. – 1943. – № 1. – S. 3 – 4.
[66] O‘zR DXXA. 23877-ish, 1-yig‘majild, 21-varaq orqasi.
[67] O‘zR DXXA. P-44038-ish, 2-yig‘majild, 139-varaq.

“Abilay” dostoni (1943-yilda qo‘mita tomonidan Berlinda nashr qilingan birinchi kitob), Almanbetning “Manas” (1943-yilda Berlinda nashr qilingan qo‘mitaning ikkinchi kitobi), Vali Qayumxon va Gali Oltoy muharrirligida “Temur o‘g‘lonlariga sovg‘a” (1943-yil noyabr oyida Berlinda nashr qilinadi, 66 sahifadan iborat bo‘lgan), M.Ravshanning “Mening tuyg‘ularim”[68], Qurbon Yang‘inlining “Maxtumquli”, shuningdek, legiondagi yosh yozuvchilarning “Chavingerdan kundalik daftari” nomli kitoblarni misol keltirish mumkin[69]. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani lotin alifbosida Turkiston turkchasida Berlinda nashr etiladi[70]. Bu davrda Vali Qayumxon va Boymirza Hayit tomonidan ham kitoblar e’lon qilinadi. Jumladan, 1944-yil Berlin shahrida Vali Qayumxonning nemis tilidagi “Die Probleme Turkestans” (“Turkiston muammolari”) va Boymirza Hayitning “Turkiston tarixi” kitoblari nashr etiladi[71]. Sovet davlatiga qarshi kurashda faqat qurol kuchi yetarli bo‘lmasligi, balki bu yo‘lda bilim kuchi bilan ham kurashish kerakligi maqsad qilingan.

Tadqiqotning “**Turkiston legioni a’zolarining urushdan keyingi taqdiri**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida urush yakunlangandan keyin SSSRga qaytib kelgan, xorijda qolishga majbur bo‘lgan legionchilarning hayoti va faoliyati yoritilgan.

Urush yakunlanmasdan sovet davlati tomonidan legion a’zolarini qo‘lga olish va jazoga tortish choralari ko‘riladi. Xususan, 1942-yil 13-yanvarda “Dushman tomonidan asirga olingan sobiq qizil qo‘shin askarlarini NKVDning maxsus jamlog‘ida saqlash tartibi to‘g‘risida”[72] qabul qilingan qaror asosida legionchilar sovet xavfsizlik xizmatining maxsus chig‘irig‘idan o‘tkaziladi. Xususan, 1943-yil fevralda Kurskda bo‘lgan jangda legionning 7-batalonidagi bir guruh jangchilar nemislarga asir tushadi. Ular orasida M.Yusupov, Sh.Hayitmetov, A.Toshmatov, N.Xolov, S.To‘rabekov, T.Boboyev, U.Mirzayev, J.Mo‘minov, S.O‘rozboyev, M.Ustayev kabi legionchilar bor edi. Uch oylik tergovdan keyin, 1943-yil 27-mayda Voronej fronti 38-armiyasining Harbiy tribunali tomonidan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-modda 1-qismi b-bandi va 2-qismi bilan ular aybdor deb topilib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etiladi[73].

Legionchilar orasida o‘limga hukm etilganlar ham bo‘lgan. Xususan, Tojinazar Xolmatov 1945-yil mayda SSSRga olib kelinganidan keyin 1946-yil iyunigacha qizil qo‘shinda xizmat qiladi. Sovet xavfsizlik xizmatida uning legionda xizmat qilganligi haqidagi ma’lumot yo‘qligi sababli uyiga ruxsat beriladi. Biroq u 1946-yil 23-dekabrda qamoqqa olinadi. Bunga uning legionda xizmat qilganligini ko‘rsatuvchi dalillar topilishi sabab bo‘ladi. Uch oylik tergovdan keyin 1947-yil 13-martda Turkiston harbiy okrugi Harbiy tribunali tomonidan Tojinazar Xolmatov o‘limga mahkum etiladi[74]. Legionchilarga o‘lim jazosini berish 1947-yil 26-maygacha, ya’ni SSSRda o‘lim jazosi bekor

[68] O‘zR DXXA. 23877-ish, 1-yig‘majild, 47-varaq.
[69] Millij Türkistan. – 1944. – № 48. – S. 11.
[70] O‘zR DXXA. 23877-ish, 1-yig‘majild, 21-varaq orqasi.
[71] Koçar Ç. XX. Yüzyıl Türkistan tarihinin önemli olayları ve şahsiyetleri. – Ankara: Bengü, 2024. – S. 95 – 96.
[72] ГАРФ. ф. 9401. оп. 1. д. 611. лл. 551 – 553. (Prlib.ru, murojaat qilingan sana: 06.04.2024)
[73] O‘zR DXXA. P-30085-ish, 1-yig‘majild, 44, 158, 164-varaqlar.
[74] O‘zR DXXA. 3632-ish, 1-yig‘majild, 86 – 87-varaqlar.

qilingunga[75] qadar davom etadi. O‘lim jazosi o‘rniga 25 yillik qamoq jazosi joriy etiladi. Xususan, Turkiston harbiy okrugi Harbiy tribunali tomonidan 1948-yil 29-yanvarda Sh.Toshmatov, M.G‘aniyev, S.Yoqubov, R.Boltayev, Ch.Imomov, Sh.Shodiyev, U.Ergashev, I.Rahmatovga RSFSR Jinoyat kodeksining 58-modda 1-qism b-bandi bilan 25 yil muddatga ozodlikdan mahrum etish va 5 yilga siyosiy huquqlarini cheklash jazosi (ya’ni, saylash va saylanishdan mahrum etish) tayinlanadi[76].

I.Stalin vafotidan so‘ng, sovet davlatining siyosiy hayotida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Chunonchi, 1955-yil 17-sentyabrda SSSR Oliy Soveti tomonidan “Ulug‘ vatan urushi yillarida okkupatsiya qilingan rayonlarda nemis-fashist bosqinchilari bilan hamkorlik qilgan sovet fuqarolarini afv etish to‘g‘risida”[77] va 1956-yil 29-iyunda KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Ministrlar Sovetining “Sobiq harbiy asirlar va ularning oilalariga nisbatan qo‘llanilgan qo‘pol qonunbuzarlik oqibatlarini tugatish to‘g‘risida”[78] qarorlar qabul qilinadi. Shu qarorlar asosida 1962-yil 8-oktyabrda Moskva harbiy okrugi Harbiy tribunalining ajrimi bilan M.Yusupov, Sh.Xayitmetov, A.Toshmatov, N.Xolov, S.To‘rabekov, T.Boboyev, J.Mo‘minov, S.O‘rozboyev, U.Mirzayev, M.Ustayevlar oqlanadi[79]. Ularning oqlanishiga legionning ishchi batalonida xizmat qilgani va sovet davlatiga o‘z xohishi bilan o‘tgani sabab qilib ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan keyin legionchilardan ba’zilari oqlandi. Xususan, M.Siddiqov, R.Qodirov, F.Mavlonov, A.Fayzullayev, T.Ermakov, T.Fozilovlar uzoq vaqt davomida oqlanish uchun olib borgan sa’y-harakatlari natijasida 1994-yil 20-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay’atining ajrimi bilan reabilitatsiya qilinadi[80]. Shuningdek, J.Yoqubboyev 2001-yil 7-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay’atining ajrimi bilan Farg‘ona garnizoni Harbiy tribunalining 1950-yil 4-avgustda chiqargan hukmi va Turkiston harbiy okrugi Harbiy tribunalining 1955-yil 15-fevraldagi ajrimi bekor qilinib, oqlanadi[81]. U SSSRning harbiy salohiyatiga zarar yetkazmagani va zarar yetkazishni xohlamagani, balki o‘zining bu xatti-harakati orqali Vatanga sodiq ekanligini amalda namoyon qilganligi oqlanishiga sabab sifatida ko‘rsatiladi.

Urushdan keyin xorijda qolgan legionchilar tomonidan Vali Qayumxon yetakchiligida MTBQning (1948-yil) faoliyati qayta tiklanadi[82]. Gerhard fon Mendening yordami bilan o‘n nafar turkistonlik Germaniyadagi oliygohlarda

---

[75] Сборник законов СССР и указов Президиума Верховного Совета СССР (1938 – июль 1956 гг.). – Москва: Государственное издательство юридической литературы, 1956. – С. 397.

[76] O‘zR DXXA. 4633-ish, 4-yig‘majild, 214 – 218-varaqlar.

[77] O‘zbekiston Milliy arxivi (keyingi o‘rinlar O‘zMA tarzida beriladi). R-2661-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 125-yig‘majild, 3-varaq.

[78] Сборник законодательных и нормативных актов о репрессиях и реабилитации жертв политических репрессий. – Москва: Республика, Верховный Совет Рос. Федерации, 1993. – С. 139 – 142.

[79] O‘zR DXXA. P-30085-ish, 1-yig‘majild, 44, 158, 164-varaqlar.

[80] O‘zR DXXA. P-44038-ish, 2-yig‘majild, 370 – 373-varaqlar.

[81] O‘zR DXXA. P-44333-ish, 1-yig‘majild, 173 – 174; 177-varaqlar.

[82] Andican A. Cedidizm’den bağımsızlığa. Hariçte Türkistan mücadelesi. – İstanbul: Tunç matbaacılık, 2003. – S. 552.

ta’lim oladi[83]. Qo‘mita sovet davlatiga qarshi siyosiy tashviqotlarni olib borib, Turkistonning mustaqilligi uchun kurashni davom ettiradi. Shu maqsadda musulmon davlatlari bilan aloqa o‘rnatishga harakat qilinadi. Boymirza Hayit 1953-yilda MTBQning vakili sifatida Saudiya Arabistoni, Turkiya, Misr, Suriya, Livan va Pokiston kabi davlatlarga yetti oy davomida safar qiladi[84]. U safar davomida davlat amaldorlari va muhojir turkistonliklar bilan uchrashib, ular bilan Turkiston masalasida suhbatlashadi. Uning bu davlatlarga qilgan tashrifi MTBQni tanitishda hamda uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda katta yordam beradi. Pokistonda turkistonliklar bilan 8 banddan iborat muhim rezolyutsiya ham imzolanadi[85].

Asirlikda bo‘lib Germaniyada qolgan turkistonliklar tomonidan GFR hududida MTBQdan boshqa tashkilotlar ham tuzilgan. Xususan, 1978-yilda Myunxen shahrida “G‘arbiy Germaniyadagi turkistonlik vatandoshlar madaniy jamiyati” tashkil topadi[86]. Bu jamiyatga xorijda qolgan 70 nafar urush qatnashchilari (asosiy qismi o‘zbeklardan tarkib topgan) asos soladi[87]. Tashkilotning rahbari toshkentlik Murod Rahmatov bo‘lgan. 20-yuzyillikning 50-yillariga kelib Turkiston legioni a’zolarining 12 nafari AQSHda istiqomat qilib, “Amerika ovozi” radiostansiyasida faoliyat olib boradi[88]. AQSHning Pensilvaniya shtatidagi Filadelfiya shahrida Isoqjon Narziqul, Ergash Shermat, Ro‘zi Nazar, Husayn Ikromxonlarning tashabbusi bilan 1958-yil 13-dekabrda “Turkiston-Amerika” uyushmasi tashkil etiladi[89]. Uyushma tomonidan “Turkiston birligi ovozi” va “Oydin” gazetalari nashr qilinadi[90]. “Turkiston-Amerika” uyushmasining birinchi prezidenti etib Isoqjon Narziqul tayinlanadi. U keyinchalik jamiyatning moliyaviy jihatdan asosiy homiysiga aylanadi[91]. Uyushmaning MTBQdan farqi shundaki, uning faoliyati faqat AQSH hududi bilan cheklanib qoladi.

XULOSA

Turkiston legioni tarixini tadqiq etish asosida quyidagi ilmiy **xulosalar** ishlab chiqildi:

1. 1941 – 1945-yillarda O‘zbekiston SSR aholisi katta miqyosda qizil qo‘shinga safarbar etilib, fashistlarga qarshi mudofaa tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faol ishtirok etadi. Urush boshlanishi bilan respublikada aholining harbiy tayyorgarligini oshirish va qisqa muddatli harbiy ta’limni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha maxsus qarorlar qabul qilinadi. Shuningdek, GULAG jamloqlarida saqlanayotgan quloqlar ham urushga safarbar etilib, ular jabhada halok bo‘lgan

[83] Kajum-Han V. Professör Gerhard von Mende haqqindağı hatıram // Milli Türkistan. – 1964. – № 100 (A). – S. 31 – 32.
[84] Quyaş H. Türkistan Türk muhacirlarining maclisi // Milli Türkistan. – 1953. – № 83 (A). – S. 22 – 29.
[85] General meeting in Karachi // Milli Türkestan. – 1953. – № 87 (B). – P. 33 – 34.
[86] Ҳайитов Ш. Ўзбек муҳожирлиги тарихи. – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2008. – Б. 142.
[87] O‘zMA. R-2822-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 72-yig‘majild, 46 – 47-varaqlar.
[88] O‘zMA. R-2822-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 89-yig‘majild, 19-varaq.
[89] Vatandosh. 2011-yil. 24-fevral.
[90] O‘zMA. R-2822-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 90-yig‘majild, 3-varaq.
[91] O‘zMA. R-2822-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 89-yig‘majild, 20-varaq.

askarlar o‘rnini to‘ldirishga yo‘naltirilgan. Biroq qatag‘on siyosati oqibatida malakali harbiylarning yo‘q qilinishi va milliy qo‘shinlarning yuzaki tayyorgarlikdan keyin jangga tashlanishi turkistonliklar (xususan, o‘zbekistonliklar) orasida qurbonlar va asirlar sonining ko‘p bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

2. SSSRning xalqaro Jeneva konvensiyasini imzolamasligi natijasida sovet harbiy asirlari konvensiya bandlarida keltirilgan siyosiy huquqlardan foydalana olmaydi. Germaniya hukumati ham konvensiya talablarini buzadi va millionlab asirlarni ochlik, kasallikka duchor qilib, ularning halok bo‘lishiga sababchi bo‘lgan. Ayniqsa, turkistonlik askarlar, jumladan, o‘zbekistonliklar ayrim hollarda yahudiylar bilan adashtirilib o‘limga mahkum qilinadi. Ushbu dalillar kommunistik va fashistik hukumatlarning harbiy asirlarga nisbatan siyosati naqadar shafqatsiz bo‘lganligini yaqqol ko‘rsatib beradi.

3. Germaniya hukumati sovet asirlaridan, xususan, turkistonliklardan siyosiy va harbiy maqsadda sovet davlatiga qarshi kurashda foydalanishga intiladi. Asirlar orasida sovet tuzumiga qarshi kurash g‘oyasini targ‘ib qilish Germaniya siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanadi. Mustafo Cho‘qay va Vali Qayumxon turkistonlik asirlarning hayotini saqlab qolish hamda ularni Turkiston legioni safiga qo‘shish ishlarini amalga oshiradilar. Natijada, legion ikki davlat o‘rtasida siyosiy va harbiy manfaatlar to‘qnashgan murakkab tarixiy jarayonda shakllanadi.

4. Turkiston legionining tuzilishi va faoliyati Germaniya harbiy qo‘mondonligi nazorati ostida amalga oshiriladi. Harbiy qism va unvonlar Vermaxt qo‘shini andozasida shakllantiriladi hamda yuqori harbiy lavozimlar nemis zobitlari ixtiyoriga topshiriladi. Legion askarlari oziq-ovqat, kiyim-kechak, harbiy qurollar bilan ta’minlanib, Germaniya qo‘shinining yirik harbiy bo‘linmalari tarkibiga biriktiriladi. Umuman olganda, legion fashistlarning siyosiy-harbiy manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lsa-da, turkistonliklar orasida milliy ozodlik g‘oyalarining tarqalishiga ham muayyan ta’sir ko‘rsatgan.

5. Turkiston legionining dastlabki faoliyati qo‘riqlash ishlarini bajarishdan boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik u qizil qo‘shin, ittifoqchi davlatlar qo‘shini va partizanlarga qarshi janglarda ishtirok etadi. Legion batalonlari Ukraina, Belorussiya, Polsha, Stalingrad, Kursk hududlaridagi janglarda qatnashib katta talafotlar ko‘radi. Shu bilan birga, legion askarlari orasida sovet davlati tomoniga o‘tish va partizanlar bilan hamkorlik qilish holatlari ham yuz beradi. 1943 – 1944-yillarda legionning bir qismi G‘arbiy Yevropaga yuboriladi va Fransiya, Gretsiya, Italiya kabi davlat hududlarida jang qiladi. Sovet maxfiy xizmati legion ichida josuslik ishlarini olib boradi va uning faoliyatiga doir ko‘plab ma’lumotlar to‘playdi. Urush yakunlangan keyin legion Turkistonni ozod etish g‘oyasini amalga oshira olmaydi va Germaniyaning mag‘lubiyati bilan birga uning faoliyati ham tugatiladi.

6. Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasi Turkiston legionining siyosiy markazi sifatida tuziladi va turkistonlik harbiy asirlar orasida Germaniya yordami bilan Turkistonni ozod qilish g‘oyasini targ‘ib etadi. Qo‘mita tarkibidagi bo‘limlar sog‘liqni saqlash, harbiy, matbuot, teatr, diniy va boshqa yo‘nalishlarda ish olib

boradi. Nashrlar, sahna asarlari va radio eshittirishlar orqali qilingan targ‘ibot ishlari legion a’zolari orasida alohida o‘rin egallaydi. Qo‘mita Germaniya manfaatlariga bo‘ysungan bo‘lsa ham turkistonliklar orasida ma’lum darajada istiqlolchilik g‘oyalarini targ‘ib qiladi.

7. Milliy Turkiston Birlik Qo‘mitasi tomonidan jurnal, gazeta va turli mavzudagi kitoblar ham nashr etiladi. Jumladan, “Millij Türkistan” va “Millij edebiyat” jurnallari hamda “Yeni Türkistan” va “Türk birligi” gazetalari chop etilib, ularda Rossiyaning Turkistonda amalga oshirgan mustamlakachilik siyosati hamda uning oqibatlari keng yoritiladi. Shu bilan birga milliy dostonlar, she’rlar, tarixiy kitoblar va badiiy asarlari ham qo‘mita tomonidan nashr qilinadi. Mazkur nashrlar orqali sovet davlatining Turkistonda yuritiyotgan kommunistik siyosatning mohiyatini ko‘rsatib berish maqsad qilingan.

8. Ikkinchi jahon urushi yakuniga yetmasdan sovet davlatining maxfiy xizmatlari asirlikka tushgan qizil qo‘shin askarlarini, xususan, Turkiston legionida xizmat qilganlarni qattiq tekshiruvdan o‘tkazadi. Legionchilarning katta qismi vatan xoini sifatida jazoga tortiladi va ularning ayrimlari otuv hukmi va uzoq muddatli GULAG jamloqlaridagi og‘ir mehnatga hukm qilinadi. Stalin o‘limidan keyingi davrda legionchilarning katta qismi ozod qilingan bo‘lsa-da, ular Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi degan nomdan mahrum qilinadi. Mustaqillik yillarida esa ayrim legionchilar reabilitatsiya qilinadi. Ularning sovet davlatiga xiyonat qilmaganligi oqlanishi uchun asosiy sabablardan biri bo‘lgan.

9. Urushdan keyin xorijda qolgan turkistonlik harbiy asirlar va legionchilarning keyingi taqdiri murakkab kechadi. Ularning ayrimlari G‘arb davlatlarida qolib, sovet davlatiga qarshi kurashni davom ettiradi. Nyurnberg sudida legionning bir qator yetakchilari aybsiz deb topilib ozod etiladi va Vali Qayumxon rahbarligida MTBQ faoliyati qayta tiklanadi. Qo‘mita targ‘ibot ishlari va ba’zi musulmon davlatlari bilan aloqalar orqali Turkiston masalasini dunyo jamoatchiligiga yetkazishga intilgan. Boymirza Hayit, Husayn Ikromxon, Ergash Shermat kabi ziyolilar ilmiy va siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanib, Turkistonni ozod qilish masalasini xalqaro maydonda targ‘ib etadilar.

Tadqiqot natijasida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Turkiston legioni a’zolarining faoliyatini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar doirasini kengaytirish, ilmiy adabiyotlar chop etish;

2. Xorijda saqlanayotgan Turkiston legioniga tegishli arxiv materiallarini O‘zbekistonga olib kelish choralarini ko‘rish va hujjatlar to‘plamini nashr qilish;

3. O‘zbekistonlik va xorijlik tarixchi olimlar bilan hamkorlikda Turkiston legioniga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy yig‘inlarni tashkil etish.

SCIENTIFIC COUNCIL NUMBER DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01 ON AWARDING THE SCIENTIFIC DEGREES UNDER THE INSTITUTE OF HISTORY OF THE ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

INSTITUTE OF HISTORY

ZOHIDJON VALIJON UGLI KHOLDOROV

HISTORY OF TURKESTAN LEGION

07.00.01 – History of Uzbekistan

ABSTRACT
of the dissertation of Doctor of philosophy (PhD) in History

Tashkent – 2026

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation was registered with the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under number B2025.3.PhD/Tar1597.

Dissertation has been conducted at the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

The abstract of dissertation has been posted in three language (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.fati.uz) and Information-educational portal «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Scientific adviser:	**Kahramon Kenjaevich Radjabov** Doctor of historical sciences, professor
Official opponents:	**Baxtiyor Ergashevich Ergashev** Doctor of historical sciences, professor
	Muzrobjon Gulomovich Abdullaev Doctor of historical sciences, professor
Leading organization:	**Namangan state university**

The defence of the dissertation will be held on “January 16” 2026, at 14:00 at the meeting of the Scientific Council number DSc.02/03.12.2019. Tar.56.01 on award of scientific degrees at the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. (Address: 100060, Tashkent, Shakhrisabz street, 5, Institute of History, Floor 8. Large Meeting Hall. Tel.: (99871)233-54-70; fax: (99871) 233-39-91; e-mail: info@fati.uz. Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan)

The dissertation can be reviewed in the Fundamental library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (Registered number ____). Address: 100170, Tashkent, Ziyolilar Street, 13. Tel.: (99871) 262-74-58; fax: (99871) 262-34-41

Abstract of dissertation is delivered “9” January 2026.

(Registery protocol № 1 dated “8” January 2026)

Azamat Ziyo
Chairman of the Scientific Council on awarding academic degrees, Doctor of historical sciences, academician

Kh.S. Jumanazarov
Scientific secretary of the Scientific Council on awarding academic degrees, Doctor of historical sciences

F.S. Boboev
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council on awarding academic degrees, Doctor of historical sciences

INTRODUCTION
(annotation of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD))

The relevance and necessity of the dissertation topic. In the current process of globalization, many political processes are having a serious impact on human dignity, social and political rights. This, in turn, requires new approaches to the issue of protecting the human and political rights of prisoners of war. In this regard, the study of the fate of captured warriors and the history of the legions formed from them is of current importance.

In a number of leading research centers and higher educational institutions of the world, scientific research has been conducted on the causes and consequences of the Second World War, the activities of war participants at the front. In particular, the attitude of the Soviet government towards captured Red Army soldiers and the policy pursued by Germany towards them, ensuring the rights and freedoms of prisoners of war brought into the international Hague and Geneva Conventions, and the participation of prisoners of war in military operations are being systematically studied. However, such issues as the military structure of the Turkestan Legion, its activities on the front lines, social security, the role of the National Turkestan Unity Committee in the Legion and its publications, the fate of legionnaires who returned to the Soviet state after the war, the attitude of the Soviet government towards them, and the life of legionnaires who remained abroad are of urgent importance.

The reforms being carried out in the direction of the development of historical science in the new Uzbekistan make it necessary to study the history of the Uzbek people and statehood based on scientific approaches in accordance with national interests. In particular, the contribution of the Uzbek people to the victory during the Second World War and their fate in captivity is one of the urgent scientific directions. Indeed, "*According to documents, nearly 2 million of our population, which at that time numbered 6.8 million, participated in the bloody battles against fascism. Of these, about 540,000 died, 158,000 went missing, more than 50,000 died in concentration camps due to unprecedented torture and suffering, and more than 60,000 returned disabled*"[1]. Therefore, the study of the mobilization of the Uzbek people to the front, their capture by the German army, their difficult situation in captivity, the formation of the Turkestan Legion from them, as well as the Soviet government's policy towards prisoners of war and the Turkestan Legion, determines the relevance of the research.

This dissertation research serves to a certain extent the implementation of the tasks defined in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 No. UP-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" and the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 19, 2025 "On the preparation and worthy celebration of the 80th anniversary of the Victory in the Second World War and the Day of Remembrance and Honor," as well as in other regulatory legal documents related to the field, in

[1] Ўзбекистон халқига байрам табриги / Халқ сўзи. 2025 йил 10 май.

highlighting the problems associated with the Turkestan Legion, which operated during the Second World War.

Correspondence of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was carried out within the framework of the priority direction of the program I. "Formation of a system of

innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic,

cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state".

The degree of research of the problem. Research on the history of the Turkestan Legion can be classified into the following groups:

1. Scholarly works produced during the Soviet period;
2. Studies conducted in the years of independence;
3. Research carried out by foreign scholars.

In the literature[2] published during the Soviet period, the activities of the Turkestan Legion were assessed from the standpoint of that era and within the framework of communist ideology. In particular, the books written by L.Bezimenskiy and M.Semiryaga depict the legions composed of Soviet prisoners of war as military units consisting of traitors to the Motherland. T.Amirov, meanwhile, described how the Turkestan Legion under the leadership of Vali Kayumkhan fought against the USSR in the interests of Germany. The philosopher Q.Khonazarov, discussing the activities of Vali Kayumkhan and Boymirza Hayit, emphasized that the books authored by them contained information that contradicted the development of the Soviet republics of Central Asia. In the works of Kh.Ibrohimbeyli, the battles waged by legions of Soviet prisoners within the German army for control over the Caucasus region are examined.

In general, the literature produced during this period portrayed Red Army soldiers captured by Germany as traitors to their homeland, while the unjust policies pursued by the Soviet government toward its own soldiers were left unexamined. Likewise, the struggle carried out by members of the Turkestan Legion in cooperation with Germany was interpreted solely as an act of treason against the Motherland.

During the years of independence, along with many other topics in the history of Uzbekistan, the Turkestan Legion has also become a subject of research among Uzbek scholars[3]. In particular, the works of R.Shamsutdinov, Sh.Karimov,

---

[2] Хоназаров Қ. Ўрта Осиё республикалари тарихини сохталаштирувчиларга зарба // Ўзбекистон коммунисти. – 1963. – № 8. – Б. 91 – 96; Гемма В. Участие советских людей в европейском антифашистском движении сопротивления (1941-1945 гг.). – Ленинград, 1965. – 112 с.; Амиров Т. Крах легиона. – Алма-Ата: Издательтсво Казахстан, 1970. – 92 с.; Семиряга М. Советские люди в европейском сопротивлении. – Москва: Наука, 1970. – 351 с.; Безыменский Л. Особая папка "Барбаросса". – Москва: Новости, 1972. – 342 с.; Джураев Т. Узбекистанцы – участники партизанской войны. – Тошкент: Узбекистан, 1975. – 137 с.; Ибрагимбейли Х. Крах «Эдельвейса» и Ближний Восток. – Москва: Наука, 1977. – 319 с.; Безыменский Л. Разгаданные загадки Третьего рейха. Книга не только о прошлом, 1941 – 1945. Том 2. – Москва: Издательтсво Агенства печати Новости, 1980. – 281 с.

[3] Каримов Ш. Туркистон легиони // Турон тарихи. – 2003. – № 1. – Б. 29 – 30; Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. (Учинчи китоб). – Андижон: Andijon nashriyot-matbaa, 2004. – 650 б.;

N.Karimov, and M.Isakova examine the reasons behind the capture of Soviet soldiers during the Second World War and the attitude of the Soviet government toward them. In the studies of K.Rajabov, the activities of the Turkestan Legion are analyzed from new perspectives and interpretations. The scholar emphasizes that the Legion played a significant role in preserving the lives of Turkestanis and that Vali Kayumkhan and Boymirza Hayit made substantial contributions to its operations, referring to the Turkestan Legion as the "National Army of Turkestan"[4]. The books and articles authored by Sh.Turdiyev, A.Yuldashev, and M.Darmonova include information about the Legion's leader, Vali Kayumkhan – his dispatch to Germany for studies in 1922, his later fate, and materials related to the journal "Millij Türkistan". Furthermore, certain aspects of the Legion are also reflected in the fundamental research works[5] prepared by the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan.

